Shu jumladan, N. Xatamov o'z ilmiy tadqiqotlarida O'zbekistonda SI rivojini strategik qarash, ekotizim shakllanishi, institutsional islohotlar va amaliy qo'llanish yo'nalishlari bilan bog'lab tahlil qilgan (Khatamov, 2025). K.S. Rashidov va O.O. Muslimov esa SIni raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish, biznes jarayonlarini optimallashtirish va innovatsion faoliyatni jadallashtirish vositasi sifatida ko'rsatadi (Rashidov & Muslimov, 2024). SI doirasida huquqiy javobgarlik masalalarini o'z ilmiy ishlarida chuqur tahlil qilgan S.S. Bozarov esa sud hokimiyati organlarida SIdan foydalanishning nazariy va amaliy jihatlarini o'rganib, bu jarayonda samaradorlik bilan birga adolatlilik, shaffoflik va inson omilini saqlab qolish zarurligini ta'kidlaydi (Bozarov, 2022).

Ushbu ilmiy yondashuvlarni umumlashtiradigan bo'lsak, O'zbekistonda SI bo'yicha tadqiqotlar asosan to'rt yo'nalishda shakllanayotganini ko'rish mumkin:

birinchidan, SIga oid milliy huquqiy konsepsiya va tartibga solish asoslarini ishlab chiqish;

ikkinchidan, raqamli iqtisodiyot va innovatsion rivojlanishda SIning rolini baholash;

uchinchidan, davlat boshqaruvi va davlat xizmatlarida SI imkoniyatlarini aniqlash;

to'rtinchidan, inson huquqlari, shaxsiy ma'lumotlar, sud-huquq tizimi va javobgarlik bilan bog'liq xavflarni tahlil qilish.

Shu nuqtayi nazardan, mazkur maqola O'zbekistonda SI rivojlanishini huquqiy islohotlar, davlat boshqaruvi, institutsional mexanizmlar va amaliy loyihalar bilan uzviy bog'liq kompleks jarayon sifatida tahlil qilishga qaratilgan.

Metodlar

Ushbu tadqiqot rasmiy huquqiy hujjatlar, hukumat matbuot bayonotlari, yangiliklar va ilmiy nashrlardan olingan ma'lumotlarni umum-

lashtiradi. Asosiy manbalar qatoriga qonunlar, Prezident farmonlari va qarorlari hamda Vazirlar Mahkamasi qarorlari, rasmiy axborot vositalari (hukumat portallari, xalqaro matbuot) hamda siyosat tahlilchilari tomonidan o'tkazilgan tahlillar kiradi. Ushbu materiallarni sinchiklab o'rganish orqali biz mamlakatimiz bo'ylab SIni joriy etish va rivojlantirish bilan bog'liq asosiy qonunchilik bosqichlari, pilot loyihalar va siyosat natijalarini aniqladik.

Shu jumladan, mazkur tadqiqotda normativ-huquqiy tahlil, tizimli tahlil, kontent-tahlil va statistik tahlil metodlaridan foydalanildi. Normativ-huquqiy tahlil metodi orqali O'zbekiston Respublikasida SIni rivojlantirishga oid qonunlar, Prezident hujjatlari va Vazirlar Mahkamasi qarorlari o'rganildi. Tizimli-tahliliy metod yordamida esa SI siyosati raqamli transformatsiya, davlat boshqaruvi, iqtisodiyot, ta'lim, sog'liqni saqlash va jamoat xavfsizligi bilan bog'liq yaxlit jarayon sifatida baholandi.

Xususan, kontent-tahlil metodi orqali rasmiy bayonotlar, xalqaro hisobotlar, ilmiy maqolalar va ommaviy axborot vositalarida e'lon qilingan materiallar o'rganildi. Statistik tahlil metodi esa O'zbekistonning *Government AI Readiness Index* reytingidagi o'zgarishlari, pilot loyihalar soni, 2030-yilgacha belgilangan maqsadli ko'rsatkichlar va investitsion rejalarni izohlashda qo'llanildi. Shuningdek, tadqiqot natijalarini asoslashda mavzuga oid qonunchilik hujjatlari, statistik ma'lumotlar, jadval va diagrammalardan foydalanildi.

Natijalar

O'zbekiston SI sohasida yangi huquqiy infrazuzilmani shakllantirish, shuningdek, ushbu yo'nalishni kompleks rivojlantirishga xizmat qiluvchi institut va tuzilmalarni jadal sur'atlarda barpo etmoqda. Xususan, SIga oid ilmiy tadqiqotlar va innovatsion ishlanmalar uchun muhim institutsional tayanch sifatida Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot instituti alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur institut O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 31-iyuldagi 475-son qaroriga asosan tashkil etilgan bo'lib, hozirda Raqamli texnologiyalar vazirligi tizimida faoliyat yuritmoqda. Institut mamlakatimizda SI sohasidagi ilmiy va tashkiliy sa'y-harakatlarni boshlab bergan dastlabki ixtisoslashgan tuzilmalardan biri hisobla-

nadi. Uning faoliyati SI yo'nalishida fundamental va amaliy tadqiqotlarni kengaytirish, ilmiy asoslangan yondashuvni mustahkamlash hamda ilg'or texnologik yechimlarni ishlab chiqish orqali davlat va jamiyat ehtiyojlariga xizmat qilishga qaratilgan.

Shuningdek, 2021-yil 17-fevraldagi "Sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4996-sonli Prezident qarori bilan 2021–2022-yillarga mo'ljallangan sun'iy intellekt texnologiyalarini o'rganish va joriy etish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi ishga tushirilib, unda o'nlab pilot loyihalar, ta'lim tashabbuslari va hatto hukumat, sanoat hamda ilmiy doiralarning milliy SI ittifoqini amalga oshirish rejasi tasdiqlandi. Zamonaviy tizimning asosiy qismi 2024-yil 14-oktabrdagi SI strategiyasi bo'ldi, bu 2030-yilgacha SI rivojlanishini aniq belgilab beruvchi "Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-358-sonli Prezident qaroridir. U yuqori darajadagi maqsadlarni, jumladan, O'zbekistonda ishlab chiqarilgan SI dasturiy ta'minoti eksportini 1,5 milliard dollarga yetkazish va global SI indeksleri bo'yicha eng yaxshi 50 talikka kirish kabi maqsadlarni belgilaydi hamda turli sohalar (moliya, bojxona, sog'liqni saqlash, qishloq xo'jaligi, energetika) bo'yicha ustuvor harakatlarni ko'rsatib beradi.

Yuqorida ta'kidlab o'tilgan strategiya ijrosini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 10-iyuldagi 425-son qarori qabul qilindi. Mazkur qaror bilan 2025–2026-yillarda sun'iy intellekt texnologiyalari sohasida ustuvor loyihalarni amalga oshirish chora-tadbirlari tasdiqlandi.

Qarorga muvofiq, Raqamli texnologiyalar vazirligi huzurida "Sun'iy intellekt va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish markazi" tashkil etildi hamda strategiyani amaliyotga joriy etishning tayanch institutsional subyekti sifatida belgilandi hamda uning ishtirokida davlat organlari va tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladigan ustuvor SI loyihalari ro'yxati tasdiqlandi. Shuningdek, ekspertlar maslahat kengashi tashkil etildi hamda ta'lim sohasida majburiy maqsadlar (yangi SI o'quv dasturlari va laboratoriyalari) belgilandi. Natijada, atigi bir yil ichida O'zbekiston SIga tayyorgarlik bo'yicha xalqaro indeksda 17 pog'o-

naga ko'tarilib, Markaziy Osiyoda birinchi o'rinni egalladi (Ministry of Digital Technologies of the Republic of Uzbekistan, 2025).

2025-yilda esa bu sohada tub burilish amalga oshirgan "Sun'iy intellekt texnologiyalarini yanada rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-189-sonli Farmon qabul qilindi. Ushbu Farmon bilan 2026-yil oxirigacha davlat boshqaruvi organlari, ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarida SI texnologiyalarini keng joriy qilish bo'yicha kamida 100 ta SI loyihasini amalga oshirish, 2030-yilgacha SIga 1 milliard dollardan ortiq sarmoya kiritish va SI subyektlarini muvofiqlashtirish uchun "Sun'iy intellekt alyansi" nodavlat notijorat tashkilotini tuzish vazifasi qo'yildi.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, 2025-yil davomida Markaziy Osiyoda birinchilardan bo'lib O'zbekistonda SI sohasidagi munosabatlarni huquqiy tartibga solishga qaratilgan alohida qonun loyihasi ishlab chiqildi. Ushbu loyiha Oliy Majlis Qonunchilik palatasi tomonidan 2025-yil 15-aprelda birinchi o'qishda ma'qullandi. Qonun loyihasida sun'iy intellekt tushunchasiga rasmiy ta'rif berish hamda SIDan axborot resurslari va tizimlarida foydalanishning umumiy qoidalarini belgilash nazarda tutilgan. Parlament muhokamalari jarayonida, xususan, SI yordamida yaratilgan audio, video va tasviriy kontentni ommaviy axborot vositalari hamda internetda joylashtirishda uni SI mahsuli ekanini bildiruvchi maxsus belgi (markirovka) qo'yish taklifi ilgari surildi. Mazkur qonun loyihasi 2025-yil 12-avgustda Qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilinib, 2025-yil 1-noyabrda Senat tomonidan ma'qullandi hamda 2026-yil 21-yanvarda O'RQ-1115-sonli Qonun sifatida rasmiy kuchga kirdi.

Ushbu "Sun'iy intellektni qo'llash orqali yuzaga keladigan munosabatlar tartibga solinishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish to'g'risida"gi O'RQ-1115-sonli Qonun bilan "Axborotlashtirish to'g'risida"gi Qonunga muhim qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritildi. Xususan, 7¹-moddada sun'iy intellekt dan foydalanishda insonning hayoti, sog'lig'i, sha'ni, qadr-qimmati, huquq va erkinliklari ustuvor tamoyil sifatida belgilandi hamda huquq va erkinliklarga daxldor yuridik ahamiyatga ega qarorlarni faqat sun'iy intellekt xulosalariga

tayangan holda qabul qilishga yo'l qo'yilmasligi mustahkamlandi. Shuningdek, 12¹-modda orqali sun'iy intellektdan foydalangan holda shaxsga doir ma'lumotlarga qonunga xilof ravishda ishlov berish va ularni internetda tarqatish uchun huquqiy javobgarlik belgilandi. Bundan tashqari, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksga kiritilgan 462-modda asosida bunday huquqbuzarliklar uchun ma'muriy jarima va huquqbuzarlik qurollarini musodara qilish choralarining joriy etilishi ko'zda tutildi. Mazkur qonun O'zbekistonda SI sohasini tartibga soluvchi ilk maxsus qonun hujjati sifatida muhim huquqiy va tarixiy ahamiyat kasb etdi.

Shuningdek, O'zbekiston SIni keng ko'lamli sohalarga tatbiq etmoqda. Hukumat hisobotlariga ko'ra, 2025-yil oxiriga kelib davlat xizmatlari, bank-moliya tizimi, jamoat xavfsizligi va transport sohalarida 30 dan ortiq pilot loyihalar amalga oshirilgan (Ministry of Digital Technologies of the Republic of Uzbekistan, 2025). Rejalar yanada kengroq: hukumat sog'liqni saqlash, moliya, soliq/bojxona, transport, tog'-kon sanoati va qishloq xo'jaligi sohalarida sun'iy intellektga asoslangan taxminan 100 ta loyihani yakunlashni maqsad qilgan. Masalan, bank sohasida O'zbekiston kompaniyalari allaqachon SIDan firibgarlikni aniqlash va kreditlarni tezroq tasdiqlash uchun foydalanmoqda, qishloq xo'jaligida esa sun'iy yo'ldosh tasvirlarini tahlil qilish orqali hosildorlikni bashorat qilish va uskunalarni masofadan boshqarish uchun mashinali o'qitish usullari qo'llanilmoqda. Xususan, sog'liqni saqlash sohasida esa saraton kasalligini aniqlash uchun SI yordamida tibbiy tasvirlash sinovlari o'tkazilmoqda. Davlat boshqaruvida yangi tizimlar (masalan, lex.uz huquqiy chatboti) va "aqlli shahar" pilot dasturlari joriy etilmoqda. Har yili hukumat mahalliy innovatsiyalarni rag'batlantirish uchun milliy SI tanlovlarini (masalan, "Eng yaxshi sun'iy intellekt startapi" va "Prezident sun'iy intellekt mukofoti") o'tkazadi.

Bundan buyon raqamlashtirishga mas'ul bo'lgan vazir o'rinbosarlari va tarmoq rahbarlari SIni rivojlantirish uchun ham javobgar bo'ladi. Shahar va tumanlarda hokimning raqamlashtirish va SI bo'yicha maslahatchisi lavozimi joriy etilmoqda. Kelgusi yildan vazirliklar va hududlar kesimida SI texnologiyalarining joriy etilishi samaradorligini baholaydigan reyting tizimi ishga tushiriladi (Mi-

nistry of Digital Technologies of the Republic of Uzbekistan, 2025).

Bundan tashqari, infratuzilma va o'qitish masalalari ham parallel ravishda takomillashtirilmoqda. O'zbekistonda klasterlar va superkompyuterlarni sotib olish uchun byudjet mablag'lari ajratildi (hisoblash quvvatlarini kengaytirish maqsadida), SI infratuzilmasiga investitsiyalarni jalb qilish uchun imtiyozlar joriy etildi (masalan, Qoraqalpog'istonda elektr energiyasi uchun 5 sentlik tariflar). Shuningdek, O'zbekistonning lingvistik ehtiyojlarini hisobga olgan holda, hukumat SI "o'zbek tilini tushunishi" va milliy madaniyatni aks ettirishi uchun o'zbek tilidagi korpuslarni raqamlashtirmoqda. Shu o'rinda ta'lim sohasi ham rivojlantirilib, o'rta maktablar va universitetlarda SI va ma'lumotlar fanlari mavzulari o'qitiladi (yangi darsliklar MIT bilan hamkorlikda ishlab chiqilgan), yosh iste'dodlarni aniqlash va o'qitish uchun "1 million sun'iy intellekt yetakchilari" yoshlar dasturi ishga tushirildi. Universitetlar va ilmiy-tadqiqot institutlari SI laboratoriyalarini qurmoqda, "sanoat-universitet" modeli asosida SI klasteri (masalan, Yangi O'zbekiston universitetida) tashkil etilmoqda.

Ushbu hamkorlikdagi sa'y-harakatlar allaqachon o'z samarasini bermoqda. Sun'iy intellekt markazi va strategiyasi shakllantirilgandan so'ng atigi bir yil ichida O'zbekiston sun'iy intellektga tayyorlik xalqaro indeksida 17 pog'onaga ko'tarilib, Markaziy Osiyoda yetakchi o'rinni egalladi. Mahalliy tahlilchilar O'zbekiston sun'iy intellekt bozori salohiyatini taxminan 10-11 milliard dollarga baholamoqda. Ushbu o'sishni boshqarish uchun O'zbekiston boshqaruv jarayonlarini ham takomillashtirmoqda. Masalan, endi vazir o'rinbosarlari va mahalliy amaldorlar SI taraqqiyoti uchun mas'ul hisoblanadi, vazirliklar esa vaqti-vaqti bilan SI loyihalari natijalari bo'yicha baholanadi.

Muhokama

O'zbekiston tajribasi yuqori siyosiy iroda bilan amalga oshirilayotgan keng qamrovli, sohalararo SI strategiyasini ko'rsatib bermoqda. Mamlakat strategiyani belgilashdan uni amalga oshirishga tezkorlik bilan o'tdi, ya'ni huquqiy islohotlar SIDan foydalanishni ham rag'batlantirmoqda, ham tartibga solmoqda. Uning yondashuvi investitsiya va innovatsiyalarni axloqiy kafolatlar bilan uyg'unlashtirish orqali ilg'or jahon tajribasini aks

ettiradi. E'tiborli jihati shundaki, O'zbekiston siyosati insonni markazga qo'yadi, bundan ko'rinib turibdiki, SIning barcha tashabbuslari davlat xizmatlari va turmush darajasini yaxshilash vositalari sifatida talqin etiladi, SIning milliy tamoyillari esa inson huquqlari, shaffoflik va hisobdorlikni aniq mustahkamlaydi. Ushbu insonga yo'naltirilgan yondashuv rasmiy ikki ustunga asoslangan strategiyaga (innovatsion imkoniyatlar yaratish va inson farovonligini ta'minlash) mos keladi.

Biroq muammolar hali ham mavjud. Bir qator manbalarda ta'kidlanishicha, O'zbekistonda hali ham yuqori samarali hisoblash resurslari yetarli emas, xususan, mavjud quvvatlar faqat kichik loyihalarni qo'llab-quvvatlashga yetadi. SI uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar notekis taqsimlangan, shu jumladan, ko'plab vazirliklarning ma'lumotlar bazalari bir-biridan ajratilgan yoki eskirgan edi, shu bois hukumat 55 ta eski ma'lumotlar bazasini yagona markazga birlashtirish to'g'risida qaror qabul qildi (Ministry of Digital Technologies of the Republic of Uzbekistan, 2025). Tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, ishchi kuchi va SI sohasidagi savodxonlik bo'yicha ham bo'shliqlar mavjud bo'lib O'zbekiston SI bo'yicha tayyorlangan mutaxassislar ulushi va raqamli savodxonlik darajasi bo'yicha yetakchi davlatlardan orqada qolmoqda (Khatamov, 2025). Buni inobatga olgan holda, O'zbekiston siyosati ta'lim islohotlariga va hatto raqamli savodxonlik kampaniyalariga alohida e'tibor qaratmoqda. Xalqaro miqyosda taqqoslaganda, O'zbekistonning jadal taraqqiyoti e'tiborga loyiq. U mintaqada birinchilardan bo'lib SIDan foydalanishda yuzaga keladigan munosabatlarni tartibga soluvchi qonun va milliy SI strategiyasini qabul qildi.

Hisobotlarda ta'kidlanishicha, O'zbekistonning qonunchilik va dasturiy asosi IHTTning tavakkalchilikka asoslangan modeliga yaqindan mos keladi, shu bilan birga, iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish uchun moslashuvchan tarzda amalga

oshiriladi (Digital Watch Observatory, 2025). Shuningdek, O'zbekiston (BMTTD ko'magida) davlat va xususiy sektor o'rtasida muloqotlar hamda xalqaro sheriklik aloqalarini yo'lga qo'yish orqali sun'iy intellekt bo'yicha global hamjamiyatlar bilan hamkorlik qilmoqda (United Nations Development Programme Uzbekistan, 2025).

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston o'z iqtisodiyoti va hukumatida SIga asoslangan jadal o'zgarishlarni boshdan kechirmoqda. Aniq qonunchilik bazasi (jumladan, 2030-yilgacha sun'iy intellekt strategiyasi, yangi me'yoriy hujjatlar va maxsus sun'iy intellekt qonuni) ishlab chiqilgan. Bu siyosat aniq harakatlar bilan qo'llab-quvvatlanmoqda, xususan, infratuzilmaga katta mablag'lar kiritilmoqda, sog'liqni saqlash, qishloq xo'jaligi, moliya, transport va davlat xizmatlari sohalarida o'nlab tajriba loyihalari amalga oshirilmoqda, shuningdek, ta'lim va innovatsiyalar bo'yicha yirik dasturlar yo'lga qo'yilmoqda. Ushbu sa'y-harakatlarning natijasi o'laroq mamlakatning SIga tayyorlik bo'yicha global reytingdagi o'rni sezilarli darajada yaxshilandi va mutaxassislar 2030-yilga borib SIning yalpi ichki mahsulotga sezilarli hissa qo'shishini bashorat qilmoqda (Grau, 2024). Kelajakda barqaror muvaffaqiyatga erishish mavjud imkoniyatlar bo'shlig'ini (ma'lumotlar platformalari, hisoblash quvvati, malakali kadrlar) bartaraf etish va SIning O'zbekistonning keng qamrovli rivojlanish maqsadlari bilan to'liq uyg'unlashtirishga bog'liq bo'ladi. Agar ushbu muammolar hal etilsa, O'zbekiston aqlli boshqaruv va raqamli innovatsiyalar bo'yicha mintaqaviy yetakchiga aylanishi mumkin. Bu esa muvofiqlashtirilgan siyosat va investitsiyalar SIning milliy rivojlanish uchun qanday safarbar etishi mumkinligini namoyon etadi.

Quyida esa yakuniy xulosa sifatida SIga oid qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar va ularning amaliy hamda tahliliy ahamiyati yoritilgan jadval keltiriladi:

Jadval

Sun'iy intellektga oid qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar

T/r	Hujjat	Tartibga solish yo'nalishi	Asosiy normalar va vazifalar	Rasmiy statistik yoki maqsadli ko'rsatkichlar	Maqolada foydalalanish uchun tahliliy ahamiyati
1	PF-6079, 05.10.2020 "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasi	SI siyosati uchun umumiy raqamli transformatsiya bazasi	Davlat boshqaruvi, ta'lim, sog'liqni saqlash va boshqa sohalarida raqamlashtirishni jadallashtirishga qaratilgan strategik asos	Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumat ko'rsatkichlari keyingi SI strategiyalari uchun bazaviy indikator sifatida xizmat qiladi	SI bo'yicha keyingi qarorlar aynan "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasiga tayanib qabul qilinganini ko'rsatadi
2	PQ-4996, 17.02.2021 SI texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish	O'zbekistonda SI bo'yicha dastlabki kompleks siyosiy-huquqiy hujjat	2021–2022-yillarda SIni o'rganish va joriy etish dasturi, normativ baza, xavfsizlik, shaffoflik, davlat xizmatlari, ma'lumotlar va pilot loyihalar yo'nalishlari belgilandi	Qishloq xo'jaligi, bank, moliya, soliq, transport, energetika, sog'liqni saqlash va farmatsevtika kabi sohalarida pilot loyihalar nazarda tutilgan	Maqolada SI siyosatining boshlang'ich bosqichi, pilot yondashuv va normativ bazani shakllantirish zaruratini asoslash uchun ishlatiladi
3	VMQ-475, 31.07.2021 Raqamli texnologiyalar va SI ilmiy-tadqiqot instituti faoliyatini tashkil etish	Ilmiy-tadqiqot va kadrlar tayyorlash infratuzilmasi	TATU huzuridagi markaz va O'zMU huzuridagi ilmiy-amaliy markaz negizida Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot instituti faoliyati tashkil etildi	Institut ikki ilmiy markaz negizida tashkil etilgan; SI sohasida ilmiy-tadqiqot va yuqori malakali kadrlar tayyorlash vazifasi yuklangan	SI ekotizimida ilmiy-institutsional tayanch shakllanganini ko'rsatadi
4	PQ-5234, 26.08.2021 SI texnologiyalarini qo'llash bo'yicha maxsus rejimni joriy qilish	Regulyatorlik tajriba maydoni va innovatsion sinov rejimi	Eksperimental innovatsion tadqiqotlar doirasida SI texnologiyalarini qo'llash bo'yicha maxsus rejim joriy etildi; dasturiy mahsulot va xizmatlarni tajribadan o'tkazish uchun tashkiliy-huquqiy sharoit yaratildi	Maxsus rejim SIga asoslangan biznes-modellar, mahsulotlar va xizmatlarni sinovdan o'tkazishga qaratilgan	SI huquqiy tartibga solishida "sandbox" yondashuvi shakllanganini ko'rsatadi
5	PQ-358, 14.10.2024 SI texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasi	Milliy SI strategiyasi va maqsadli indikatorlar	2030-yilgacha SI strategiyasi, maqsadli ko'rsatkichlar, 2024–2026-yillar chora-tadbirlari hamda "katta ma'lumotlar" ro'yxati tasdiqlandi	2030-yilgacha SI mahsulotlari va xizmatlari hajmi — 1,5 mlrd AQSH dollari; my.gov.uz'da SI asosidagi xizmatlar ulushi — 10%; SI laboratoriyalari — 10 ta; Government AI Readiness Index bo'yicha top-50; ochiq ma'lumotlar to'plamlari — 10 000 ta	Maqolada strategik maqsadlar, natijadorlik mezonlari va rasmiy statistik indikatorlar asosiy dalil sifatida ishlatiladi
6	VMQ-425, 10.07.2025 2025–2026-yillarda SI sohasida ustuvor loyihalar	Strategiyani amaliyotga joriy etish va loyihalarni muvofiqlashtirish	Raqamli texnologiyalar vazirligi tizimidagi tashkilotlar hamda vazirlik va idoralar tomonidan amalga oshiriladigan SI ustuvor loyihalari ro'yxatlari tasdiqlandi; Markazning tuzilmasi belgilandi	2025–2026-yillarga mo'ljallangan ustuvor loyihalar vazirlik va idoralar kesimida rasmiylashtirilgan; har chorakda axborot kiritish tartibi belgilangan	SI strategiyasi deklarativ hujjat emas, balki ijro mexanizmlari va loyiha ro'yxatlari bilan ta'minlanganini ko'rsatadi
7	PF-140, 21.08.2025 Sudlar faoliyatiga SI texnologiyalarini joriy etish	Sud-huquq tizimida SI va "Raqamli sud" konsepsiyasi	Sud ishlarini bosqichma-bosqich elektron yuritish, sud xarajatlarini SI yordamida hisoblash, sudga taalluqlilik va sudlovga tegishlilikni aniqlash, sud jarayonlarida raqamlashtirishni kuchaytirish vazifalari belgilandi	2025–2027-yillarga mo'ljallangan sud sohasini raqamlashtirish dasturi va 2025–2030-yillar moddiy-texnik ta'minot chora-tadbirlari nazarda tutilgan	SI davlat boshqaruvi bilan bir qatorda odil sudlov sohasiga ham kirib borayotganini ko'rsatadi

T/r	Hujjat	Tartibga solish yo'nalishi	Asosiy normalar va vazifalar	Rasmiy statistik yoki maqsadli ko'rsatkichlar	Maqolada foydalalanish uchun tahliliy ahamiyati
8	PF-189, 22.10.2025 SI texnologiyalarini yanada rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar	SI rivojini jadal-lashtirish, infra-tuzilma, kadrlar, reyting va rag'batlantirish tizimi	2026-yilgacha kamida 100 ta SI loyihasi, 2030-yilgacha 1 mlrd AQSH dollari-dan ortiq xorijiy investitsiya, 15 ta SI laboratoriyasi, ai.gov.uz portali, President AI Award va SI bo'yicha reyting tizimi belgilandi	100 ta loyiha; 1 mlrd AQSH dollaridan ortiq investitsiya; 15 ta laboratoriya; yiliga ikki marta eng yaxshi SI loyihalari tanlovi	SI siyosati yangi bosqichga o'tganini, mas'uliyat va natijadorlik indikatorlari kuchayganini ko'rsatadi
9	PQ-320, 30.10.2025 SI loyihalarini qo'llab-quvvatlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar	SI loyihalari va startaplarni moliyalashtirish	Ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarida SIga asoslangan ustuvor hamda startap loyihalarini moliyalashtirishni kengaytirish belgilandi	2026–2027-yillarda qo'shimcha 100 mln AQSH dollari: 50 mln — davlat organlariga SI joriy etish uchun beg'araz, 50 mln — venchur jamg'armalar orqali startaplarni qo'llab-quvvatlash uchun	SI ekotizimining moliyaviy ta'minoti shakllanayotganini ko'rsatadi
10	O'RQ-1115, 21.01.2026 SI munosabatlari-ni tartibga solish bo'yicha qonun	SIga qonuniy ta'rif, umumiy talablar, inson huquqlari va javobgarlik	"Axborotlashtirish to'g'risida"gi Qonunga SI ta'rifi, SI texnologiyalaridan foydalanishning umumiy asoslari, vakolatli davlat organi vazifalari, inson huquqlari kafolatlari va shaxsga doir ma'lumotlarni noqonuniy ishlash uchun javobgarlik kiritildi	SIga ilk bor qonun darajasida ta'rif berildi; faqat SI xulosasiga tayanib inson huquqlariga daxldor yuridik qaror qabul qilish taqiqlandi	Maqolada O'zbekistonda SI huquqiy tartibga solinishi shakllangani va inson markazli yondashuv mustahkamlanganini asoslaydi
11	Raqamli texnologiyalar vazirining 284-mh-son buyrug'i; Adliya ro'yxati №3787, 14.03.2026 SIga asoslangan yechimlar bo'yicha Etika qoidalari	SI yechimlarini yaratish, joriy etish va ulardan foydalanishda etik talablar	Etika qoidalari SI texnologiyalari va tizimlari uchun xavfsizlik, etika, ishtirokchilarning huquq va majburiyatlarini belgilaydi; Oliy sud, IIV, DXX, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi va ILMA bilan kelishilgan	Hujjat 2026-yil 14-martda ro'yxatdan o'tgan; 2026-yil 17-iyundan kuchga kiradi	SI tartibga solishida axloqiy tamoyillar va institutsional javobgarlik alohida normativ darajaga ko'tarilganini ko'rsatadi

REFERENCES

- Bozarov, S. S. (2022). Sud hokimiyati organlarida sun'iy intellektning qo'llanilishi: nazariya va amaliyot [Application of artificial intelligence in judicial authorities: Theory and practice]. *Jurisprudence Legal Scientific and Practical Journal*, 3, 39–47.
- Frank.uz. (2025, November 6). *The Senate approved the AI law*. Frank Economics.
- Grau, G. (2024, December 6). *Harnessing AI for development: Uzbekistan's progress towards becoming a regional IT hub*. Oxford Insights.
- Gulyamov, S., Rustambekov, I., Narziev, O., & Xudayberganov, A. (2025). Draft concept of the Republic of Uzbekistan in the field of development artificial intelligence for 2021–2030. *Jurisprudence*, 1, 106–121.
- Jalolova, S. (2025, April 16). Uzbekistan moves to regulate AI and protect personal data. *Times of Central Asia*.
- Khatamov, N. (2025). Artificial intelligence development in Uzbekistan: Strategic vision, ecosystem growth, and emerging applications. *Modern American Journal of Business, Economics, and Entrepreneurship*, 1(6), 19–24.
- Ministry of Digital Technologies of the Republic of Uzbekistan. (2025, October 21). *Implementation of artificial intelligence technologies to reach a new level*.

Ministry of Digital Technologies of the Republic of Uzbekistan. (2024, October 16). *Presidential decree: Approval of the strategy for artificial intelligence development until 2030.*

Ministry of Digital Technologies of the Republic of Uzbekistan. (2025, December 22). *Uzbekistan rises 25 places in AI Readiness Index.*

Ministry of Digital Technologies of the Republic of Uzbekistan. (2024). *Digital Uzbekistan – 2030 strategy.*

OECD AI Observatory. (2024). *Uzbekistan: Strategy for development of artificial intelligence – 2030.* OECD Digital Policy Bulletin.

Oxford Insights. (2025). *Government AI Readiness Index 2025.* Oxford Insights.

Rashidov, K. S., & Muslimov, O. O. (2024). Using artificial intelligence in developing the digital economy. *European Journal of Economics, Finance and Business Development*, 2(12), 38–45.

Tleubergenova, A., & Olimzhonova, N. (2025). The role of artificial intelligence in the digital economy. *Modern American Journal of Business, Economics, and Entrepreneurship*, 1(2), 528–534.

United Nations Development Programme Uzbekistan. (2025). *Digital economy of Uzbekistan: Empowering digital transformation.*

United Nations Development Programme Uzbekistan. (2025, November 18). *From training to dialogue: Uzbekistan forms comprehensive approach to AI development.*

Digital Watch Observatory. (2025, December 4). *Uzbekistan sets principles for responsible AI.* Digital Watch Updates.

YURIDIK FANLAR AXBOROTNOMASI ВЕСТНИК ЮРИДИЧЕСКИХ НАУК REVIEW OF LAW SCIENCES

Huquqiy ilmiy-amaliy jurnal

Правовой научно-практический журнал

Legal scientific-practical journal

2026-yil 2-son

VOLUME 10 / ISSUE 2 / 2026

DOI: [HTTPS://DX.DOI.ORG/10.51788/TSUL.ROLS.2026.10.2](https://dx.doi.org/10.51788/TSUL.ROLS.2026.10.2).